

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**AXMEDOV JOXON KULDASHEVICH**

**KURASH SPORTI ORQALI O‘QUVCHILARDA MILLIY IFTIXOR  
TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Axmedov Joxon Kuldashevich**

Kurash sporti orqali o‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish  
omillari..... 3

**Ахмедов Жохон Кулдашевич**

Факторы формирования чувства национальной гордости у учеников с  
использованием курашу ..... 31

**Akhmedov Jokhon Kuldashevich**

Factors of forming the feeling of national pride among students through kurash.. 61

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 65

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**AXMEDOV JOXON KULDASHEVICH**

**KURASH SPORTI ORQALI O‘QUVCHILARDA MILLIY IFTIXOR  
TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.Phd/Ped2153 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.uzdjtsu.uz va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Kiyamov Nishon Sadikovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Mamurov Baxodir Baxshulloyevich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Keldiyorov Shuhrat Ergashevich**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**Yetakchi tashkilot:** **Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.3/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «2» «05» soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17 79,717-27-27, faks.:(0-370) 717-17-76; Veb-sayt: www.uzdjtsu.uz, e-mail: info@uzdjtsu.uz. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "E" bino, 3-qavat, 309-auditoriya.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (0152 raqam bilan ro'yxatiga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko'chasi, 15-uy. Tel.:(0-370)-717-17 79,717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "15" 04 kuni tarqatilgan.  
(2025-yil "18" 03 dagi 15 raqami reyestr bayonomasi)



**R.M.Matkarimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

**Sh.Sh.Gaziyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

**S.S.Tajibayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PHD/Ped2153 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.uzdjtsu.uz va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Kiyamov Nishon Sadikovich</b> pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Mamurov Baxodir Baxshulloyevich</b> pedagogika fanlari doktori (DSc), professor <b>Keldiyorov Shuhrat Ergashevich</b> pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Termiz davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.3/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_» «\_\_\_\_\_» soat \_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17 79,717-27-27, faks.:(0-370) 717-17-76; Veb-sayt: www.uzdjtsu.uz, e-mail: info@uzdjtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “E” bino, 3-qavat, 309-auditoriya.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatiga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel.:(0-370)-717-17 79,717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatilgan.  
(2025-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqami reyestr baynomasi)

**R.M.Matkarimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

**Sh.Sh.Gaziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

**S.S.Tajibayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi))**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyoda yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, yoshlarga milliy iftixor tuyg'ularini singdirish masalasi tobora o'zining amaliy ahamiyatini oshirib bormoqda. Bu borada so'z borganda sport vositasida yoshlarda o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhini singdirish, shu bilan birga sportning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlaridan keng foydalangan holda yoshlarni har tomonlama tarbiyalash masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, sport turlarining jamiyat rivojlanishi hamda dunyo taraqqiyotining ijtimoiy jabhalaridagi o'rnini oshirishga qaratilgan amaliy harakatlar tobora ortib borayotganligi ma'lum. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida milliy sport turlari vositasida o'quvchi yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish, yoshlarda vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish masalasi amaliy jihatdan o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Jahonda milliy sport turlari orqali o'quvchi yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, milliy g'urur, milliy iftixor, insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini singdirish, qisqa qilib aytganda milliy sport turlari orqali o'quvchi yoshlarni har tomonlama tarbiyalash masalasi muayyan darajada ilmiy jihatdan o'rganilgan. Jumladan, shu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlari Yaponiya, Janubiy Koreya, Indoneziya, Malayziya kabi mamlakatlarda amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqot ishlarida yoshlar tarbiyasida milliy sport turlarining o'rnini va ahamiyati muammosi tadqiqot ob'yekti sifatida tadqiq etilgan. Biroq, milliy sport turlari orqali o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish, milliy sport turlarining yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va faxr-iftixor tuyg'usini shakllantirishdagi o'rnini ilmiy o'rganish borasidagi izlanishlar o'z ahamiyatini tobora oshirib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni har tomonlama tarbiyalash, ularni barkamol insonlar etib voyaga yetkazish, o'quvchi yoshlar ongiga vatanparvarlik va millatparvarlik g'oyalarini singdirish, ularda milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. "Yoshlarni har tomonlama barkamol insonlar sifatida tarbiyalash, ularning ham jismonan ham ma'nadan yetuk shaxs bo'lib voyaga yetkazish borasidagi izchil islohotlar tahsinga sazovordir"<sup>1</sup>. Ayniqsa, buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an'analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, yoshlarning milliy sportga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlash<sup>2</sup> asosiy maqsad va vazifalar sifatida belgilangan. Shu bilan birga "tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3907-son Qarori.

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi "Kurash" milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4881-son Qarori.

muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi" deyiladi O'zbekiston Respublikasining Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasida. Konsepsiyada umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'rta va yuqori sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalash, xususan, irodaviy sifatlarni rivojlantirish va milliy qadriyatlar, an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Shunga ko'ra ta'lim muassasalarining yoshlar tarbiyasidagi imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish masalasi muhim sanaladi. Shu bilan birga, milliy sportimiz hisoblangan kurash orqali o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish yuzasidan keng ko'lamli ilmiy-tadqiqotlar olib borish hamda kurash sportining tarbiyaviy-pedagogik salohiyatidan keng foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-241-son "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son "Kurash" milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda sohaga doir boshqa normativ xujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-marifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda kurashning shaxsni tarbiyalash xususiyatlari, kurash sportida insonparvarlik masalalari, yoshlar ongiga vatanparvarlik g'oyalarini singdirishga doir qarashlar buyuk mutafakkirlar Abu Ali ibn Sino, Husayn Voiz Koshifiy, Abulkosim Firdavsiy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Paxlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy kabilarning asarlarida yoshlar tarbiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, kurash rivojining zamonaviy bosqichida kurashni tadqiq etgan respublikamiz olimlaridan A.Atayev, J.Toshpulatov, R.Mustafoqulov, H.Bobobekov, U.Qoraboyev, A.Asqarov, O.Toymurodov, O'.Ibrohimov, H.Rafiyev, K.Yusupov, F.Axmedov, A.Abdulaxatovlarning tadqiqot ishlarida kurashning falsafiy, tarixiy, ijtimoiy-pedagogik, tarbiyaviy asoslari yoritib berilgan<sup>3</sup>. Alohida qayd etish kerakki, badiiy

---

<sup>3</sup> Abu Ali Ibn Sino. Tib Qonunlari. Abdulla Qodiriy nomiдаги халқ меъроси нашриёти. Т-1993. 304 б; Хусаин Воиз Кошифий. Футувватномаи Султоний, Ахлоқи Мухсиний. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, нашриёти, Тошкент 2011. - 376 б.; Абулкосим Фирдавсий. Шохнома. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси. Токент-2012. - 188 б.; Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Янги Аср Авлоди нашриёти. Т., 2016. - 320 б; Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. Фафур Ғулум номидаги Нашриёт. Т-2018. - 556 б.; Пахлавон Маҳмуд – Пуёйвалий. Тўхтасин Жалолов. <https://kh-davron.uz/>; Алишер Навоий. Ҳамса. <https://e-tarix.uz/>; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. <https://e-tarix.uz/>; Абдулла Авлоний. <https://ziyouz.uz/>; Атаев А.К. К вопросу об использовании узбекской народной

adabiyotlarda ham kurashga doir muhim va qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Masalan, badiiy adabiyot namoyondalari Said Ahmad va Tog'ay Murod kabilarning asarlarida kurash o'z aksini topganligi ahamiyatlidir. Ushbu asarlarda kurash orqali milliy g'urur, or-nomus, vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg'usini bolalikdan shakllantirish, kurash o'zbek xalqiga xos bo'lgan qadriyat ekanligi tasvirlab berilgan. Biroq, yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy-uslubiy va badiiy adabiyotlarda kurash vositasida umumta'lim maktablari o'quvchilariga milliy iftixor tuyg'usini singdirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilmagan. Kurash sportining o'quvchi-yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish va shakllantirishga ijobiy ta'siri ilmiy asoslanmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlarining sportga oid tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Hususan, L.P.Matveyev, V.M.Platonov, L.I.Lubisheva, Y.F.Kuramshin, E.V.Markin<sup>4</sup> kabi olimlarning tadqiqot ishlarida jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy masalalari atroflicha yoritib berilgan. Ammo, milliy sport turi bo'lgan kurash sporti orqali o'quvchi yoshlarda milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish masalasi ilmiy tadqiqotlar doirasidan chetda qolgan.

Xorijiy olimlarning kurashga doir tadqiqot ishlari kurashning tarixiy, falsafiy, ijtimoiy-pedagogik asoslarini talqin qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kurashga doir xorijlik olimlardan L.Gares, C.Gensay, O.Gensay, T.Philippe kabilarning tadqiqot ishlarida keltirib o'tilgan<sup>5</sup>. Ahamiyatlisi ular tomonidan kurashning tarixiy rivojlanish tendensiyalari, ijtimoiy-madaniy hayotda uning o'rni va shu kabi masalalar yoritib berilgan. Biroq, kurash orqali o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga doir izlanishlar amalga oshirilmagan.

---

борьбы кураш (по бухарским правилам) в подготовке борцов по вольной борьбе и самбо. Материалы I Среднеазиатской научно-теоретической конференции по проблеме «Пути повышения спортивного мастерства спортсменов республик Средней Азии и Казахстана». Т., Наука УзССР, 1965. - 78 с.; Атаев А.К. Программа по узбекской национальной спортивной борьбе кураш для факультетов физического воспитания и Узбекского института физической культуры. Т., Медицина, 1967.; С-17-21; Тошпўлатов Ж. Сурхондарёда жисмоний тарбия ва спорт. - Термиз, 1991. - 38 б.; Бобобеков Х. Ўзбек кураши доврўғи. Тошкент-2002. - 124 б.; Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. Тошкент: Шарқ, 2002. – 476 б.; Askarov A. Archeological material of the Uzbek national struggle // History of Turan. - 2002. С-15.; Тоймуродов О. Кураш - тинимсиз меҳнат дегани": [Ўзбекистон Давлат Жисмоний тарбия ин-ти спорт кураши кафедраси доценти билан суҳбат] / Ф.Сатторов суҳбатлашди // Спорт. - 2002. -5 июн.; Муродов М., Қорабоев У., Рустамова Р. Этномаданият. Тошкент: Адолат, 2003. – 199 б.; Юсупов К. Кураш халқаро қоидалари, техникаси ва тактикаси. Тошкент-2005. - 125 б.; Тошпўлатов Ж, Мустақақулов Р. Алпомишлар афсона эмас. - Тошкент: “Янги аср авлоди” НММ, 2007. – 121 б.; Иброхимов Ў., Рафиев Х. Спорт ва кадрият. Тошкент, Янги аср авлоди. 2009. – 100 б.; Ахмедов Ф.Қ., Абдулахатов А.Р. Ўзбек кураши - миллий ва умуминсоний кадриятлар дурдонаси.-Т.:«Адабиёт учкунлари», 2017: - 128 б.

<sup>4</sup> Матвеев, Л. П. Теория и методика физической культуры. М: 1991. С-415.; Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Олимпийская литература. М: 1997. С-557.; Лубышева Л. И. Социальная роль спорта в развитии общества и социализации личности. Теория и практика физической культуры. М: 2001. С-11-15.; Курамшин Ю.Ф., Григорьев В.И., Латышева Н.Е., Двейрина О.А., Аксенов В. П., Выдрин В.М., Попов В.И. Теория и методика физической культуры. М: 2010. С-145.; Маркин Э.В. Социальная значимость спорта в жизни человека. Актуальные вопросы профессиональной ориентации сельских школьников в современных условиях развития агробизнеса. М: 2010. С- 71-176.

<sup>5</sup>De Garis L. Experiments in pro wrestling: Toward a performative and sensuous sport ethnography. Sociology of sport journal. 1999. Pp. 65-74.; Gencay S., Gencay O.A. Burnout among judo coaches in Turkey. Journal of Occupational Health. 2011. Pp. 365-370.; Philippe T. Wrestling styles and the cultural reinterpretation process, The International Journal of the History of Sport. 2014. Pp. 492-508.

Adabiyotlar qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, kurash orqali milliy g'urur, or-nomus, vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg'usini bolalikdan shakllantirish, kurash o'zbek xalqiga xos bo'lgan qadriyat ekanligi ilmiy asoslash, kurash vositasida umumta'lim maktablari o'quvchilariga milliy iftixor tuyg'usini singdirishga doir tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmagan hamda kurash sportining o'quvchi-yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish va shakllantirishga ijobiy ta'siri ilmiy asoslanmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kurash sporti orqali o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish omillarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida kurash sportini o'qitish jarayonining o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga ta'sirini baholash;

kurash sportining o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash;

kurash sporti vositasida o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish;

kurash sporti orqali o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyeksi** sifatida umumta'lim maktablarining 9-11-sinf o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish jarayoni belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-11-sinf o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida mavzuga oid ilmiy manbalar, o'quv-meyoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik (kuzatish, suhbat, anketa, so'rov) va pedagogik tajriba-sinov, monitoring, tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kurash sporti orqali o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usi milliy qadryatlarga, kurashning tarixiy uslubiy asoslariga ustuvorlik berish asosida shakllantirilgan;

dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda kurash sportining insonparvarlik, an'anaviylik va milliylik xususiyatlariga asosiy e'tiborni qaratish orqali o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usining shakllanganligi dalillangan;

kurash sportining fanlararo integratsiyasi, pedagogik maqsad va vazifalari, didaktik materiallar mazmunini boyitish, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy faoliyatlar vositasida o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning modeli ishlab chiqilgan;

"Polvonlar sulolasi" hamda "Davlat ramzlari va kurash" yo'nalishlarida ishlab chiqilgan didaktik vositalarni o'quv va mashg'ulotlar jarayonida qo'llash natijasida

o'quvchilarda kurash sporti orqali milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish samaradorligi oshirilgan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilari ongiga milliy iftixor tuyg'usini singdirishda kurash sportining pedagogik imkoniyatlaridan foydalanishning texnologiyasi takomillashtirilgan;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining milliy iftixor va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish kurash sportidan foydalanish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olib borilgan tajribalarning mantiqiyliigi, o'zaro aloqador metodologik asosda olib borilganligi, yetakchi olimlarning ilmiy qarashlari bilan asoslanganligi, tadqiqot usullarining vazifalarga muvofiqligi, tadqiqot maqsadi, tajriba qamrovining yetarli hajmi va reprezentativligi, tadqiqot materiallari ustida miqdoriy va sifat tahlillarining amalga odirilganligi, olingan natijalar matematik statistik usullar bilan qayta ishlanganligi, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish haqidagi dalolatnomalarning mavjudligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'quvchi yoshlarga milliy iftixor va milliy g'urur tuyg'ularini singdirishda milliy sportimiz kurashni qo'llash shart-sharoitlari hamda yo'llarining ishlab chiqilganligi, kurash sportining pedagogik, tarbiyaviy va yoshlarni har tomonlama tarbiyalash imkoniyatlarining ilmiy asoslanganligi, o'quvchi yoshlarning milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish va shakllantirishda ishlab chiqilgan takliflarning amaliyotda qo'llash shart-sharoitlarining ijobiy ta'siri bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, globallashuv sharoitida umumta'lim maktablari o'quvchilarida milliy iftixor, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilganligi, o'quvchilarning o'z yurti tarixi, madaniyati, urf-odatlar va qolaversa milliy sporti – kurash bilan fahrlanish hamda g'ururlanish hissini rivojlantirishga xizmat qilishi, yoshlarda salbiy g'oyalarga qarshi munosabatning shakllantirishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kurash orqali umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

kurash sportining o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga ijobiy ta'sirini baholash yuzasidan ishlab chiqilgan tavsiyalar "Kurash va uni o'qitish uslubiyati" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 29-martdagi 2-son ma'lumotnomasi). Natijada umumta'lim maktablari kurash sportini o'qitish jarayonining o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga ta'sirini baholash imkoniyati kengaytirilgan;

kurash sportining o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish imkoniyatlarini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar "Kurash va

uni o'qitish uslubiyati" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 29-martdagi 2-son ma'lumotnomasi). Natijada kurash sportining o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish imkoniyatini aniqlash samaradorligi oshirilgan;

kurash sporti vositasida o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar "Bolalar sport mashg'ulotlari nazariyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 20-apreldagi 01/501-A/F-45-son ma'lumotnomasi). Natijada kurash sporti orqali o'quvchilarga milliy iftixor tuyg'usini singdirish imkoniyati kengaytirilgan;

o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish va takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar "Bolalar sport mashg'ulotlari nazariyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 20-apreldagi 01/501-A/F-45-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarga kurash orqali milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish va takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy-metodik ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 2 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, 11 ta jadval, 4 ta rasm hamda ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga bog'liqligi, dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati hamda ularning joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi hamda hajmi atroflicha yoritilgan.

Dissertatsiya **ishining "O'quvchilarda sport orqali milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari"** deb nomlangan birinchi bobida umumta'lim maktablari o'quvchilari ongiga milliy iftixor tuyg'usini singdirishning zarurati va dolzarbligi, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunida yoshlarni Ona-Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi

jarayonida ularni har tomonlama barkamol avlodlar etib voyaga yetkazish masalalari muhokama etilgan.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, yoshlar tarbiyasi borasida bir qator olimlar o'zlarining qimmatli ma'lumotlarini berganlar. Masalan, Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy kabilarning ilmiy-adabiy yo'nalishlarida shaxs tarbiyasi, komil insonni tarbiyalash va milliy tarbiya masalalari o'z aksini topgan. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tafakkur tarzini rivojlantirish va ma'naviy tarbiya masalalari G.Ibragimova, M.Imomnazarov, Q.Quranboyev, M.Quronovlar tomonidan tadqiq etilgan.

O'zbek tilining izohli lug'atida "Milliy iftixor tuyg'usi – o'z milliy mansubligidan faxrlanish imkoniyatidir, deya ta'rif berilgan. Milliy iftixor tuyg'usi o'z millatining boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan g'ururlanish imkoniyati. Milliy iftixor tuyg'usi – o'zligini anglash va o'zgalarni tushunishga da'vat etuvchi qudratli kuch" sifatida ham ko'riladi. Ko'rinib turibdiki, mualliflar bu o'rinda g'urur tushunchasini shaxsga, iftixor tushunchasini millatga hos tuyg'u sifatida e'tirof etadilar. Aynan mana shu holat ular o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi ko'rsatkich sifatida qabul qilinadi. Har ikki tushunchaga berilgan ta'rifdan g'urur tushunchasi individuallik, iftixor tushunchasi esa ijtimoiylik xususiyatiga ega bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin. "Milliy g'urur (iftixor), – deb ta'rif beriladi manbalarda, - shaxs yoki ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy-ma'naviy meros, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmat, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha" desak maqul bo'ladi.

Alohida qayd etish kerakki, xorijlik olimlar tomonidan o'quvchilarga milliy iftixor tuyg'usini singdirish masalasida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, D.Evans va Dj.Kelley Yevropa va AQShning 24ta mamlakatlarida kuzatishlar va tadqiqotlar olib borib, mahalliy xalqning milliy iftixor va g'ururlanish darajasini aniqlaganlar. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatganki, turli millat vakillari turli omillar va sabablarga ko'ra muayyan millat vakillari ekanligidan g'ururlanar ekanlar. Olimlarning ta'kidlashicha turli millatlarga xos bo'lgan umumiy xususiyat bu ularning sport natijalari orqali milliy iftixor tuyg'usini his qilishlari ekan.

Ken Xardman milliy iftixor tuyg'usini singdirish masalasida muhim fikr va xulosalarga kelgan. Uning fikriga ko'ra jismoniy tarbiya va sport milliy g'urur va iftixor, yoshlar ma'naviy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bu borada muhim ahamiyatga ega.

Sport natijalarining milliy iftixor tuyg'usini singdirishga ta'sirini aniqlash masalasida mashhur olim Tim Pavlovskiy tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari katta ahamiyatga ega. Dunyo miqyosida olimpiya o'yinlari va boshqa xalqaro sport musobaqalarida erishilgan natijalar nafaqat o'zining iqtisodiy ahamiyati bilan, balki ulkan ijtimoiy xususiyatlari bilan muhimdir. Mazkur natijalar yoshlarni

milliy iftixor ruhida tarbiyalash, ularga o‘z vatani farzandi ekanligidan fahrlanish hissini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Yoshlarga milliy iftixor tuyg‘usini singdirishda Germaniya va Niderlandiya tajribasi alohida ahamiyatga ega. Bu borada olimlarning tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Olib borilgan tahlillar va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, Germaniya va Niderlandiyada Olimpiya o‘yinlarida qo‘lga kiritilgan yuqori natijalar bilan fahrlanish va ulardan g‘ururlanish aholining turli qatlamlariga tegishli usullarda singdiriladi.

Bu boradagi tajribalar va amaliyot Osiyo mamlakatlarida ham uchraydi. Jumladan, Janubiy Koreya milliy sport turi bo‘lgan Taekwondo, Yaponiya milliy sporti bo‘lgan dzyudo kabi sport turlari mazkur mamlakatlar milliy fahri va g‘urur ramzi sifatida ta‘lim muassasalarida o‘qitiladi.

Jahon taraqqiyotining hozirgi davrida yoshlarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash juda katta ahamiyatga ega. Shu sababdan dunyo mamlakatlarida yoshlarni o‘z vatani va xalqiga sadoqatli, milliy qadriyatlarga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. O‘z navbatida yoshlarga milliy iftixor tuyg‘usini singdirish zarurati tobora ortib borishi dissertatsiyaning birinchi bobida ochib berilgan.

Dissertatsiya ishining **“Kurash sporti orqali o‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini singdirishning pedagogik imkoniyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida, milliy sport turi hisoblangan kurashning tarbiyaviy, falsafiy, ma‘naviy asoslari, uning yoshlarni har tomonlama kamol toptirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Sport bir so‘z bilan aytganda jismoniy harakatlar yig‘indisidir. Belgilangan jismoniy mashqlar bilan murabbiy nazoratida shug‘ullanish, turli musobaqalarda qatnashish va yuqori natijalarga erishish sportning mohiyatini tashkil qiladi. Sport deyilganda dastlab ko‘z oldimizda kelishgan qad-qomatli inson tasvirlanadi. Shu bilan birga sport insonni nafaqat jismonan, balki aqlan, axloqan, ma‘nan tarbiyalash imkoniyatiga ham ega. Bu o‘rinda sportning jamiyatda tutgan o‘rni, uning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirib o‘tish lozim.

Insoniyatning rivojlanishi bilan bir vaqtda turli sohalar, yo‘nalishlar rivojlanib keldi. Buni biz ishlab chiqarish, madaniyat, ilm-fan shuningdek, sportda ham ko‘rishimiz mumkin. Tarixiy manbalar, arxeologik qazilmalar ajdodlarimiz qadimdan hozirgi sport atamasini o‘zida mujassamlashtirgan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanganidan dalolat beradi. O‘sha paytda insonlar turmush-tarzi, yashash sharoitiga hamohang tarzda u yoki bu turdagi jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishga yehtiyoj bo‘lgan. Keyinchalik, insonlar ongining takomillashuvi, jamiyatning o‘zgarishi, davrlar almashinuvi jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishning o‘ziga xos shakllarini ishlab chiqishni talab qilgan. Natijada, bugun biz fikr yuritmoqchi bo‘layotgan sport tushunchasi o‘zining asl mazmunini topdi.

Zamonaviy sport o‘z oldiga faqatgina sport natijalarini egallashni emas, shug‘ullanuvchini har tomonlama tarbiyalashni ham maqsad qilib qo‘yadi. Bu

maqsad o'z ichiga qator yo'nalishlar va tarbiya sohalarini qamrab oladi. Sportchining ma'naviy-axloqiy kamoloti, ruhiy barqarorligini va irodaviy sifatlarini shakllantirish sport mashg'ulotlari asnosida erishilishi lozim bo'lgan vazifalar sirasiga kiritiladi. Sportning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir. Shu bilan birga sport umuminsoniy qadriyat sifatida ham o'z mavqeiga ega.

Umuminsoniy qadriyatlar - yer yuzidagidagi barcha insonlar, millatlar, davlatlar uchun umumiy qadrlanishi hisoblangan umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar tizimi tushuniladi. Umuminsoniy qadriyat juda keng ko'lamli va serqirradir. Bugungi kunga kelib bu tushuncha odamlar hayotida, ularni tarbiyalashda va ma'naviy olamini boyitib borishda o'zining yuqori darajadagi ahamiyatini tobora oshirib bormoqda. Jamiyat taraqqiyotning xususiyatlariga ko'ra umuminsoniy qadriyatlarning u yoki bu shakli hayotning oldingi pog'onasiga ko'tariladi. Masalan, urush davrida tinchlik, ozodlik, ona yurtida dushmanlar bo'lganda vatanparvarlik, mamlakatning mustaqillik davrida milliy o'zlikni anglash, milliy madaniyatni o'rganishga qiziqish ortib boradi. Tarixdan ma'lum bo'ladiki, zamonlar va davrlar o'zgarishi sportning ahamiyatini hech qachon qadrsizlantirgan emas. Sport har doim odamlar ma'naviy va moddiy ehtiyojining ajralmas qismi sifatida, umuminsoniy qadriyatlar doirasida markaziy o'rinda turadi.

Sportning ijtimoiy o'ziga xosligi, insonni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdagi o'rni beqiyosdir. Dunyoning rivojlanishi bevosita jismoniy madaniyatning ham rivojlanishiga olib keldi. Jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan sport bugungi kunga kelib o'zining yuqori ijtimoiy ahamiyatini namoyish qilmoqda. So'nggi yillarda jahon miqyosida sportning o'rnini o'rganishga qaratilgan ilmiy ishlar, uning odamlarlar turmush tarzidagi o'rni yuqori darajada ekanligini isbotladi. Ushbu masala yuzasidan jismoniy madaniyat va sport sohasi mutaxassislari, ruhshunoslar, sotsiologlar tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar va turli darajadagi ilmiy-uslubiy qo'llanmalar yaratildi (V.D.Panachayev, N.I.Ponomaryov, L.P.Matveyev, Y.M.Masharipov, R.S.Salamov, X.T.Rafiyev, J.E.Eshnazarov, L.I.Lubisheva).

Xalq orasida sport musobaqalarida tanilgan va yuqori natijalarni qo'lga kiritgan sportchilarga nisbatan "sportchi", "polvon", "g'olib", "champion" kabi tushunchalar keng qo'llaniladi. Odamlar bu kabi sportchilarga havas qilishadi, natijada, sportchi bo'lish istagi shakllanib boradi. Sportchilarni har yerda hurmat qilishadi va qadrlashadi. Aslini olganda, insonlar polvon, champion timsolida sportni yuqori baholaydilar. Sport orqali insonlarni qadrlash va yuksaklarga ko'tarish kabi tom ma'nodagi mazmun kasb etadi. Yurt bayrog'ini xalqaro maydonlarda yuqori ko'targan championlar xalq orasida qadr topadi.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi Qonunida ko'rsatib o'tilishicha O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlari O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi madaniy merosining ajralmas qismi, alohida vatanparvarlik, xalqaro maydonda mamlakatning obro'-e'tiborini yuksaltirish kabi tuyg'ularini tarbiyalash

poydevoridir. Milliy sport turlarining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti bevosita odamlarni milliy ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi. Masalan, milliy sportimiz kurashni olaylik, kurashda raqibni hurmat qilish, o'z sha'nini himoya qilish orqali ona yurti va xalqi or-nomusini, sha'nini, himoya qilish, urf-odatlarini kelajak avlodga yetkazish masalalari ushbu sport turining falsafiy va ma'naviy g'oyalari negizini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 2-oktabrdagi "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risidagi Qarori qabul qilindi. Qarorda "Kurash" milliy sport turini aholi, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida yanada rivojlantirish hamda ommalashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash, shuningdek, jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va jahon sport maydonida yuqori natijalarga erishishni ta'minlash maqsadida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va tasdiqlash nazarda tutilgan. Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar natijasida Qadimiy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, Vatanparavarlik, gumanizm g'oyalarini o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurashni ommalashtirish, keng ko'lamda targ'ib qilish va rivojlantirish, dunyoga tanitish va ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek sohada malakali kadrlar, murabbiylar va hakamlar tayyorlashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Ma'lumki, yosh avlodni har tomonlama bilimli, sog'lom va yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida ko'rsatilishicha, "...tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi", deya qayd etilgan. Yuqoridagi Konsepsiyadan ko'rinadiki, ta'lim jarayoni yoshlarni tarbiyalash, ularni har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun bevosita xizmat qilishi kerak.

Mazkur Konsepsiyada qayd etilganidek, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning, ulardagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" ruknida ota-onalar, pedagoglar, bolalar va o'smirlar uchun darsliklar, adabiyotlar, mediamahsulotlar, ilmiy-metodik qo'llanmalar majmuasini yaratish, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va rejaları asosida o'quvchilarda yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat, kompetensiyalarni shakllantirish kerak.

Boshqa jihatdan qaralganda, xalqaro normalar, xususan, XOQ, YUNESKO va boshqa tashkilotlarning rasmiy hujjatlarida ta'lim va sport avvalo komil inson tarbiyasiga, jamiyat taraqqiyoti, tinchlik, bag'rikenglik va boshqa shu kabi ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarning samarali yechimiga qaratilgan bo'lishi belgilangan.

Umuman olganda O'zbekiston va xalqaro normalarning ta'lim va sportga doir normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan normalar va qoidalar o'zaro mos bo'lib, ta'lim va sport orqali yanada rivojlangan, yanada tarbiyalangan yoshlarni voyaga yetkazish belgilangan. Dissertatsiya ishining oldingi qismlarida qayd etilganidek, o'quvchi yoshlar ongiga milliy iftixor tuyg'usini singdirishda milliy sportimiz kurash vositasidan foydalanish masalasi ilmiy o'rganilmagan va bu boradagi tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilmagan.

O'quvchilar ongiga milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularini singdirishda quyidagi yondashuvlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz.

O'quvchilarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbirlarning ta'sirchan shakllarini ishlab chiqish.

Milliy g'oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish.

Milliy iftixor, milliy g'urur va o'zlikni anglashga qaratilgan dasturlar, davra suhbatlari, seminarlar tashkil etish.

Manaviy tarbiyani amalga oshirishda boshqa o'quv fanlarining (Tarix, adabiyot, tarbiya, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar) o'zaro integratsiyasiga erishish.

Bizning fikrimizcha, kurash sportining o'quvchilar ongiga milliy iftixor tuyg'usini singdirishdagi ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Yuqoridagilarni hisobga olib, kurash sportini o'qitish, umumta'lim maktablaridagi manaviy tadbirlar, ommaviy sport tadbirlari, davra suhbatlari va turli seminarlarda kurash sportining pedagogik imkoniyatlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Qayd etilganidek, kurash sporti o'zbek xalqining madaniy me'rosi va milliy qadriyati sanalib, uni asrab avaylash, avloddan-avlodga yetkazish har bir O'zbekiston fuqarosining burchi hisoblanadi. Shu bilan birga kurash sportida yuksak axloqiy fazilatlarni yoshlarga singdirish xususiyati mavjud.

Bir qator manbalardagi ma'lumotlarni umumlashtirish hamda Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib kurash vositasida o'quvchilarga milliy iftixor tuyg'usini singdirishning quyidagi yo'nalishlarini taklif etamiz.

Kurash vositasida o'quvchilarni milliy iftixor tuyg'ularini singdirishda maktab sharoitida va maktabdan tashqari tadbirlardan foydalanish mumkin. Buning uchun bir qator usullardan foydalanish mumkin deb hisoblaymiz (1-jadvalga qarang).

## Kurash vositasida o‘quvchilarga milliy iftixor tuyg‘usini singdirish yo‘nalishlari

Yo‘nalishlar	Mazmuni	Ta‘sir etish mexanizmi
Kurash sportining tarixi haqida tushuncha xosil qilish	O‘zbek xalqining boy tarixi, jumladan kurash tarixi haqida batafsil tushuncha berish	O‘quvchilarda o‘zlikni anglash va fahrlanish motivlarining shakllanishi yuzaga keladi
Davlat mustaqilligi haqida tushuntirishlar berish	Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi, shu davrgacha milliy qadriyatlar, an‘analar va turmush tarzining ahvoli, jumladan, kurashning ta‘qiqlanishini tasvirlab berish	O‘quvchilarda nafaqat kurash sporti haqidagi tasavvurlar, balki, mustaqillik va ungacha bo‘lgan davrni taqqoslash imkoniyati yuzaga keladi
Davlat ramzlarining mohiyati va ularga hurmatni o‘rgatish	Davlat ramzlarining mazmuni, mohiyati, uning milliy xususiyatlarimizga asoslanganligi, kurash sportida davlat ramzlarining aks etishini, shuningdek, xalqaro musobaqalarda davlat ramzlaridan foydalanishni tasvirlab berish.	O‘quvchilarda davlat ramzlarining ahamiyati yuqori ekanligi, ular bilan fahrlanish hissi rivojlanadi
Xalq og‘zaki ijodi va tarixiy manbaalarda kurashning aks etishini tasvirlash	O‘zbek xalq og‘zaki ijodida, tarixiy asarlarda va badiiy adabiyotlarda kurashning tasvirlanishini tushuntirib berish	O‘quvchilarda badiiy adabiyotlar va xalq og‘zaki ijodi hamda kurashga doir bilimlar doirasi kengayadi
Tarixiy polvonlar, sarkardalar, kurash mutaxassisleri, olimlar va zamonamiz kurashchilari haqida ma‘lumot berish	Tarixda yashab o‘tgan polvonlar, ularning jasoratlari, tarixiy sarkardalar hayotida jismoniy barkamollik va kurash, shuningdek, kurash mutaxassisleri va olimlar hamda kurashchilar haqida ma‘umotlar berish.	O‘quvchilarning tarix va tarixiy shaxslar haqidagi bilim doirasi kengayadi hamda kurashga bo‘lgan qiziqishlari ortadi.

Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarga davlat ramzlari va kurash kiyimi rasmi tushirilgan fotosur‘atlar va video lavhalarini ko‘rsatish, ularning mazmunini tushuntirib berish, o‘quvchilarning ham fikrlarini bilish kerak. Jismoniy tarbiya darslarida kurash rasmi tushirilgan tarqatma materiallar, rasmlar va ko‘rgazmalarni o‘quvchilarga taqdim etish hamda kelgusi darsda bu haqida ma‘lumotlar so‘rash kerak. Ushbu vazifalarni ularni ota-onalari bilan birgalikda bajarishlarini tavsiya etish.

Darsdan tashqari ma‘naviy tadbirlar jarayonida davlat ramzlari (gerb, bayroq va madhiya) hamda kurashga doir materiallarni (rasmlar, videolar) o‘quvchilarga namoyish etish.

Davra suhbatlari, ochiq muloqotlar, ma‘naviy-ma‘rifiy soatlarda kurash tarixi, kurash falsafasi, tarixiy polvonlar to‘g‘risida, ularning insonparvarlik hislatlari va jismoniy barkamollik jihatlari haqida dalillar keltirish. O‘quvchilarga bu haqida tushunchalar berish.

Maktab miqyosidagi tadbirlarda kurash sporti aks etgan taqdimotlar va ko‘rgazmalar o‘tkazish. Bunda o‘quvchilarning ushbu taqdimotlar haqidagi tasavvurlari va fikrlari bilan o‘rtoqlashish.

Darsdan tashqari o‘quvchilarga ota-onalari va yaqinlari bilan birgalikda bajarish uchun o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan urf-odatlar, xususan, kurashga doir rasmlar chizish, ma’lumotlar tayyorlash va bajarilgan vazifalarni tushuntirib berishlarini muhokama etish.

O‘quvchilar yuqoridagi vazifalarni bajarib, ushbu bosqichlardan o‘tishlari tavsiya etiladi. Bunda ishlab chiqilgan maxsus taqdimotlar, uslubiy qo‘llanmalar va ma’ruzalar orqali faoliyat yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu ishlab chiqilgan taqdimotlar dars jarayonlariga mutlaqo halaqit bermagan holda, aksincha boshqa fanlar, xususan, tarix, adabiyot, tasviriy san’at kabi o‘quv fanlarining samarali o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ladi (2-jadvalga qarang).

## 2-jadval

### Kurash vositasida o‘quvchilarga milliy iftixor tuyg‘usini singdirish usullari va vositalari tavsifi

T/r	Usullar	Vositalar
1	<b>Og‘zaki usul:</b> hikoya, ma’ruza, suhbat	O‘quv adabiyotlari, darsliklar va ma’ruza materiallari
2	<b>Ko‘rgazmali usul:</b> o‘quv materiallarini namoyish qilish va taqdimotlar	Maxsus tayyorlangan taqdimotlar
3	<b>Amaliy usul:</b> amaliy mashq qildirish, bevosita ko‘rsatib berish	Bevosita bajarish

Yuqorida kurash vositasida o‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish usullarining tavsifi keltirilgan. Yuqoridagi usullar orqali kurashga doir ma’lumotlar, uning tarbiyaviy ahamiyatini ochib beruvchi xususiyatlarni o‘quvchilarga yetkazib berish ularning ma’naviy tarbiyalanganlik darajasi, xususan, o‘quvchilardagi milliy iftixor va milliy g‘urur tuyg‘ularining rivojlanishiga olib kelishi ilmiy faraz qilinadi. Yuqoridagi usullar orqali kurashga doir ma’lumotlar, uning tarbiyaviy ahamiyatini ochib beruvchi xususiyatlarni o‘quvchilarga yetkazib berish ularning ma’naviy tarbiyalanganlik darajasi, xususan, o‘quvchilardagi milliy iftixor va milliy g‘urur tuyg‘ularining rivojlanishiga olib kelishi ilmiy faraz qilinadi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“O‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda kurash sportidan foydalanishning samaradorligi”** deb nomlanib, olib borilgan tajriba ishlarining natijadorligi va samaradorligi batafsil yoritib berilgan.

O‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning samarali tashkil etilishi bir qator omillarning ta’siri asosida kechadi. Tadqiqotni o‘tkazish chog‘ida umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarida kurash sporti orqali milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish va takomillashtirishning muhim omillari etib quyidagilar belgilab olindi (3-jadvalga qarang).

### O‘quvchilarda kurash sporti orqali milliy iftixor tuyg‘usini shakllantiruvchi omillar

T/r	Omillar	O‘quvchilarida kurash sporti orqali milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish va takomillashtirishga bo‘lgan ta’siri
1	Kurash sportining tarixi va rivojlanish bosqichlari	O‘quvchilarni kurash tarixi bilan tanishtiradi, ularda kurashning rivojlanishi tarixi to‘g‘risidagi bilimlarni hosil qiladi
2	Kurash falsafasi va uning pedagogik ahamiyati	Kurash falsafasi xalqimiz g‘ururi va kuch-qudratining timsoli bo‘lib, yigit-qizlarimizni, epchil, jasur, mard, kuchli, kamtarin, mehnatsevar, vatanparvar qilib tarbiyalashda tengi yo‘q qadriyat sanaladi. O‘quvchilarni kurash falsafasi bilan tanishtirish, ularda polvonlarga xos sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi
3	Dunyo tan olgan O‘zbek polvonlarining jasorati	Polvonlar or uchun kurashadi. O‘z tug‘ilgan yeri, qishlog‘i, mahallasi, tumani, viloyati, o‘z yurti ori uchun maydonga chiqadi. Ko‘pincha to‘yu-sayllarda do‘sti yoki aka-ukasi yengilgan polvonning orini saqlab qolish uchun ham polvonlar har qanday raqib oldiga mardona chiqadi. Mardlik va oriyatni erkakning eng go‘zal xislati deb biladi. Aslida, har qanday yigit ham ori, g‘ururini saqlash uchun hech narsadan tab tortmaydi. Kerak bo‘lsa, o‘lishga ham tayyor bo‘ladi. Xalqimizda er yigitning uyalgani-o‘lgani, deb bejizga aytilmagan. Yana oriyat-qalb gavhari hisoblanadi, kishining xatti-harakatida, yuzida, so‘zida aks etib turadi. O‘quvchilar polvonlarining jasorati, mardligi, xalolligi, jimoniy jixatdan kuchliligini ko‘rib o‘zlarida g‘urur iftixor tuyg‘usi shakllanadi
4	Milliy qadriyatlar (urf-odat, marosim va an‘analari)	Ta‘lim-tarbiya tizimida muhim yo‘nalish milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustivorligidir. Bu kelajak avlodga boy madaniy meros qoldirish minglab yillar davomida shakllangan an‘analari asosida ta‘lim – tarbiya berishdir. Yurtimiz aholisining aksariyat qismini tashkil etuvchi yoshlar mamlakatimiz kelajagini belgilab beradi. O‘quvchilarni ta‘lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlardan izchil foydalanish katta samara beradi va shundagina kutilgan maqsadga erishish mumkin
5	O‘zbek xalq og‘zaki ijodining namunalaridagi paxlavon obrazlar talqini (“Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustam” dostonlari va boshqalar)	O‘quvchilarni xalqimizning urf – odatlari, an‘analari, xalq og‘zaki ijodi, buyuk mutafakkirlar asarlari, shuningdek bahodir polvonlari va ularning vatanparvarliklari, qahramonliklari, dovyurakliklari bilan tanishtirib borish, ularda ota-bobolarimiz merosi bo‘lgan kurashga qiziqishlarini yanada orttiradi
6	Polvonlar sulolasi an‘analari	Kurashni jahonga yanada kengroq yoyish, nufuzini oshirish va Olimpiya o‘yinlari qatoriga kiritishda o‘zlarining fidokorona mehnatlarini o‘quvchilarga namuna qilib ko‘rsatish orqali ularni milliy ruhda tarbiyalashga yordam beradi
7	Milliy sport turlari	Milliy sport turlari O‘zbek tili va madaniyati, urf odatlarini jahonga tez tanituvchi vosita ekanligi to‘g‘risidagi qarashni yuzaga keltiradi, ularda milliy sport turlarimizga nisbatan hurmat uyg‘otadi. Milliy sport turlari orqali o‘quvchilarda milliy urf odatlarimizga bo‘lgan xurmati ortadi.
8	Davlat ramzlari	Ma‘lumki, davlat ramzlari, ya’ni davlat bayrog‘i, gerbi va madhiyasi har bir mamlakatning xalqaro munosabatlardagi milliy timsoli va ramzi sifatida muhim siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu ramzlarsiz davlatning siyosiy mustaqilligini va uning xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni va rolini tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘quvchilarda millatning Davlat ramzlariga nisbatan chuqur hurmat uyg‘otadi, millatni ulug‘lashga, uning taraqqiyotini ta‘minlashga undaydi

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlarida alohida ta'sir kuchiga ega bo'lgan omillardan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Quyida ana shu masala mohiyati yoritiladi.

Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirishda pedagogika fanining an'anaviy ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot faraziga ko'ra qo'llanilgan tadqiqot usullari o'quvchilarning milliy iftixor tuyg'ularini aniqlash, ularni baholash va muayyan yondashuv ta'sirida milliy iftixor tuyg'usining shakllanganligini aniqlash imkonini berishi taxmin qilindi.

Tadqiqot mohiyati va uning xususiyatlaridan kelib chiqib ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, so'rovnoma o'tkazish, o'quv-tarbiya jarayonlariga doir hujjatlarni o'rganish, pedagogik eksperiment, davra suhbatlari o'tkazish, matematik statistika ilmiy tadqiqot uslublaridan foydalanildi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, tadqiqot mavzusi doirasida olib borilgan mahalliy va horijiy ilmiy adabiyotlar tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning belgilanishi va ularning samarali yechimiga ijobiy ta'sir etdi. Mavzuga doir adabiyotlarni tahlil etishda turli hildagi adabiyotlar, xususan, ilmiy maqolalar, anjuman materiallari, qo'llanma va darsliklar, monografiyalar va dissertatsion tadqiqotlarga ahamiyat qaratildi.

Ularning tadqiqot mohiyatiga mosligi va muvofiqligi hisobga olinib, ushbu adabiyotlarda keltirilgan ilg'or g'oyalar va uslublardan foydalanildi. Shu bilan birga ushbu manbalarda keltirilmagan ma'lumotlar bizning tadqiqot ishimizda foydalanishga harakat qilindi.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida jami 350dan ortiq turli manbalar aniqlandi. Ularning xususiyatlari va adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarning ahamiyatiga ko'ra dissertatsiya ishida foydalanildi. Google Scholar, Web of Science, Research Gate, Scopus qidiruv tizimlari va axborot manbaalaridan tadqiqotga doir ma'lumotlar o'zbek, rus va ingliz tillarida aniqlandi. Adabiyotlarni qidirishda "kurash", "sport", "jismoniy tarbiya", "milliy iftixor", "ijtimoiy ahamiyat" kabi kalit so'zlar orqali ma'lumotlar aniqlandi.

Pedagogik kuzatish. Tadqiqot muammosining amaliyotdagi holatini aniqlash hamda mavjud holatni obyektiv baholash maqsadida tadqiqot obyektida tegishli kuzatish ishlari olib borildi. Umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya darslari, darsdan tashqari jismoniy tarbiya va sport tadbirlari, xususan, kurash darslari bevosita bilvosita kuzatib borildi.

Pedagogik kuzatishlar natijasida umumta'lim maktablarida kurash orqali o'quvchilar ongiga milliy iftixor tuyg'usini singdirishning amaliyotdagi holati, milliy iftixor tuyg'usini o'quvchilarga singdirishga doir mavjud yondashuvlar aniqlandi va tahlil etildi.

So'rovnoma o'tkazish. Ilmiy adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarning hamda pedagogik kuzatish natijalarining o'quvchilar ongiga kurash sporti vositasida milliy iftixor tuyg'usini singdirishda yetarlicha ta'sirchan va samarali emasligi so'rovnoma natijalari bilan o'zaro muvofiq ekanligi aniqlandi. Xususan,

so'rovnomada ishtirok etgan so'raluvchilarning aksariyati tadqiqot jarayonida belgilangan talablardan ancha past ko'rsatkichlar ko'rsatganligi fikrimizni tasdiqlaydi.

So'rovnomada Respublikaning Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazildi. Shu bilan birga yuqoridagi viloyatlarning umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari bilan mavzu doirasida suhbatlar va muhokamalar olib borildi. Ularning fikrlari umumlashtirildi hamda xulosalar ishlab chiqildi.

O'quv-tarbiya jarayonlariga doir hujjatlarni o'rganish. O'quv jarayoniga oid hujjatlar mazmunini tahlil etish kurash orqali o'quvchilar ongiga milliy iftixor tuyg'usini singdirishda yetarlicha emasligini ko'rsatdi. Xususan, kurash darslarida asosan kurash usullarini o'rgatishga qaratilgan faoliyat olib borilishi, kurashning tarbiyaviy, estetik va falsafiy asoslari o'quvchilarga yetarli darajada singdirilmasligi aniqlandi.

Pedagogik eksperiment. Olingan ma'lumotlarni umumlashtirish, pedagogik kuzatish natijalari, so'rovnomadan olingan ma'lumotlarni umumlashtirish, o'quv hujjatlaridagi ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish asosida kurash sporti orqali o'quvchilar ongiga milliy iftixor tuyg'usini singdirishga doir tegishli yondashuv ishlab chiqildi.

Unga ko'ra jismoniy tarbiya darslari jarayonida, xususan, kurash darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida kurash sportining tarbiyaviy ahamiyati eng maqbul darajada yoritib berishga harakat qilindi.

Kurash orqali o'quvchilarga milliy iftixor tuyg'usini singdirishda nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirib olindi. Tanlab olingan guruhlar umumta'lim maktablarining 9-11 sinflaridan tasodifiy tanlash orqali shakllantirildi. dastlabki tekshirishlarda kurash orqali ularga milliy iftixor tuyg'usining singdirilganlik darajasi deyarli teng ekanligini ko'rsatdi. Shundan so'ng pedagogik tajriba ishlari yo'lga qo'yildi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash tadqiqot jarayonida ishtirok etgan o'quvchilarning savolnomaga bergan javoblari nisbatiga ko'ra aniqlandi. Bunda berilgan javoblar ulushi foizda hisoblab chiqildi.

O'quvchilarning milliy sport turidan faxrlanish darajasini aniqlashda Evans va Kelley uslubiyatidan foydalanildi. Ushbu uslubiyatga ko'ra ishtirokchilarga kurash sportidan faxrlanish darajasini belgilovchi tegishli savolnoma taqdim etildi. Milliy iftixor darajasini belgilovchi mezonga ko'ra ishtirokchilar "juda yuqori", "yuqori", "o'rtacha" yoki "past" darajada faxrlanishlarini belgilashlari zarur bo'ladi. Nazorat va tajriba guruhlariga ajratib olingan o'quvchilar guruhi uchun o'zaro farqli yondashuvlar qo'llanildi. Nazorat guruhidagi o'quvchilar an'anaviy o'quv-tarbiya va mashg'ulotlarda ishtirok etdilar. Tajriba guruhi esa kurash orqali o'quvchilarga milliy iftixor tuyg'usini singdirishni nazarda tutuvchi, tadqiqot maqsadini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan dastur asosida o'quv-tarbiya jarayonlarida ishtirok etdilar.

Yuqorida qayd etilganidek, nazorat va tajriba guruhlariga ajratib olingan o'quvchilar guruhi uchun o'zaro farqli yondashuvlar qo'llanildi. Nazorat guruhidagi o'quvchilar ana'naviy o'quv-tarbiya va mashg'ulotlarda ishtirok etdilar. Tajriba guruhi esa kurash orqli o'quvchilarga milliy iftixor tuyg'usini singdirishni nazarda tutuvchi, tadqiqot maqsadini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan dastur asosida o'quv-tarbiya jarayonlarida ishtirok etdilar. Tadqiqot jarayonida quyidagi keltirilgan yo'nalishlar bo'yicha maktab o'quvchilariga tushuntirish ishlari, ma'ruzalar, davra suhbatlari, muhokamalar olib borildi (4-jadvalga qarang).

#### 4-jadval

### Tajriba guruhidagi o'quvchilarga kurash vositasida milliy iftixor tuyg'usini singdirish dasturining mazmuni

T/r	Yo'nalishlar	Mazmuni	Shakli
1	Kurash tarixiga nazar	Kurashning uzoq yillik rivojlanish bosqichlari, kurashning o'zbek xalqining sport turi ekanligi va asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan kurash an'analari va qadriyatlari yuzasidan o'quvchilarga tushuntirish ishlari olib boriladi.	Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar shaklida
2	Kurash barkamol shaxs tarbiyasining vositasi	Kurash falsafi, uning shaxs tarbiyasidagi o'rni, kurash mazmuniga singdirilgan insonparvarlik g'oyalari uning aks etishi tushuntiriladi.	Davra suhbatlari va tarqatma materiallar shaklida
3	Buyuk shaxslar hayoti va faoliyatida kurash	Paxlavon Mahmud, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabilarning hayotida jismoniy barkamollik va kurashning o'rni.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar va davra suhbatlari shaklida
4	Tarixiy, badiiy asarlar va xalq og'zaki ijodida kurash	Tarixiy mutafakkirlarning asarlari, badiiy asarlarda va o'zbek xalq og'zaki ijodining namunalarida kurashning aks etishi ("Alpomish", "Go'rog'li", "Rustam" dostonlari). Zamonaviy badiiy adabiyotlarda kurashning yoritilishi ("Ufq", "Yulduzlar mangu yonadi"). Ushbu asarlarda polvonlarga xos bo'lgan jismoniy, axloqiy va ma'naviy xususiyatlarning tasvirlanishi.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar va davra suhbatlari shaklida
5	Polvonlar Sulolasi	Kurashni rivojlantirishga katta hissa qo'shayotgan polvonlar sulolasi, respublikamizda uzoq yillardan buyon kurashni targ'ib va tashviq etib kelayotgan polvonlar haqida ma'lumot berish.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar va davra suhbatlari shaklida
6	Davlat ramzlari va kurash	Kurash musobaqalarida davlat ramzlarining qo'llanilishi, kurash kiyimida (yaktak, belbog' va boshq.) davlat bayrog'ining aks etishi va uning falsafiy asoslarini tushuntirib berish.	Darsdan tashqari mashg'ulotlar va davra suhbatlari shaklida

Kurash tarixiga nazar. O'quvchilarga milliy iftixor tuyg'usini singdirishga yo'naltirilgan dastur mazmunining birinchi yo'nalishida asosan kurash tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, avloddan-avlodga o'tib kelgan kurash an'analari o'quvchilarga tushuntirildi.

Kurashimiz tarixini ilmiy isbotlab beradigan 6 ta topilma-ashyoviy dalil mavjud.

1. Sug‘diyoning ilk o‘rta asrlarga oid ikki paxlovonning devoriy suratlari. So‘g‘diyona davlatchiligiga, ya‘ni o‘rta asrlar davriga oid noyob yodgorlik sanaladi.

2. Shunday ashyolardan yana biri silindr shaklidagi sopol idish bo‘lib, u qadimgi Baqtriya (Janubiy O‘zbekiston) hududidan topilgan. Uning bir parchasida ikki kurashchi va ulardan birining o‘z raqibini oyog‘idan chalayotgani tasvirlangan.

3. Milodiy birinchi ming yillikning o‘rtalariga oid kumush cho‘mich gardishi sirtida ham ikki pahlavonning kurashimizga xos olishayotgan holati tasvirlangan

4. Samarqand viloyati Chelak qishlog‘idan topilgan ashyolar ham o‘tmishdan sado beradi. Geometrik naqshlar solingan ushbu idishlar orasida kumush dastali qadoqcha, ayniqsa, e‘tiborni tortadi. Uning dastasi sirtida ikki pahlavon xuddi O‘zbek kurashi uslubida olishayotgani ifodalangan. Mazkur topilma ilk o‘rta asrlar davriga oiddir

5. Tangritog‘ining shimolida topilgan qoyatosh surati. Bunda ikki pahlavonning kurashi tasvirlangan. Surat ajdodlarimizning patriarxat davri hayotiga oid.

6. Qoraxoniylar sulolasi davriga oid qizil sopolidan yasalgan haykalcha. Unda qadimgi ajdodlarimiz- ikki paxlavonning kurashayotgani aks ettirilgan.

2. Kurash barkamol shaxs tarbiyasining vositasi. Kurash sportining tarbiyaviy ahamiyati, uning shaxs tarbiyasidagi o‘rni, komil insonni tarbiyalashda kurash vositasidan foydalanishga doir ma‘lumotlar, maxsus tayyorlangan ko‘rgazmali materiallar davra suhbatlari asosida o‘quvchilarga tushuntirib berildi. Hususan, kurash qoidalariga singdirilgan insonparvarlik g‘oyalari, raqibga nisbatan hurmat, unga jarohat yetkazmaslik amaliyoti, ta‘zim va uning mohiyati va boshqa kurash jarayonidagi tarbiyaviy masalalar yuzasidan tegishli ko‘rgazmali material tayyorlandi. Ushbu ko‘rgazmali material davra suhbatlari davomida o‘quvchilarga namoyish etildi va kurashda mavjud shaxs tarbiyasiga doir imkoniyatlar yoritib berildi.

3. Buyuk shaxslar hayoti va faoliyatida kurash. Ma‘lumki tarixan mardlik, oliyjanoblik va jasorat barcha xalqlar va millatlar tomonidan e‘zozlanib, ulug‘lanib kelingan. Aynan shunday sifatlarni tarbiyalash va kishida oliyjanoblik tarbiyasini shakllantirishda kurash muhim rol o‘ynaydi. Kurash falsafasiga ko‘ra polvonlar raqiblarga ataylab jarohat yetkazmasligi va bu jihat tarixiy polvonlar faoliyatida to‘laqonli aks etganligi tasvirlab berildi. Xususan, Paxlavon Mahmud, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur kabi tarixiy shaxslar va ularning jasorati aks etgan ma‘lumotlar, taqdimotlar va ko‘rgazmali materiallar darsdan tashqari kurash mashg‘ulotlari va davra suhbatlari davomida o‘quvchilarga namoyish etildi.

4. Tarixiy, badiiy asarlar va xalq og‘zaki ijodida kurash. Davra suhbatlari, uchrashuvlar, darsdan tashqari mashg‘ulotlar davomida kurash sportining tarixiy asarlar va xalq og‘zaki ijodi namunalari aks etishi yoritib berildi. Hususan, tarixiy mutafakkirlarning asarlari va o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari - “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustam” kabi dostonlarda kurashga doir ma‘lumotlar

hamda ularda polvonlarga xos bo'lgan jismoniy, axloqiy va ma'naviy xususiyatlar tasvirlab berildi. Kurash sportini tasvirlashga doir tarixiy manbaalar va qo'lyozmalardagi ma'lumotlar o'quvchilarga yetkazib berildi.

5. Polvonlar sulolasi. Tarixiy rivojlanish va turli siyosiy va ijtimoiy muhit ta'siriga qaramasdan kurashni avloddan-avlodga o'tkazib kelayotgan polvonlar sulolasi haqida qimmatli ma'lumotlar o'quvchilarga taqdim etildi. Masalan, uzoq yillardan buyon kurashni respublikamizda va jahonda rivojlantirib kelayotgan Yusupovlar sulolasi va boshqa bir qator kurash jonkuyarlari tasvirlab berildi.

6. Davlat ramzlari va kurash. Kurash kiyimi – yaktakda milliy bayroq timsolining aks etishi, xalqaro musobaqalar – Osiyo va Jaxon chempionatlari, Osiyo o'yinlari va boshqa xalqaro kurash musobaqalarida taqdirlash marosimlari, ushbu jarayonlarda davlat ramzlardan foydalanish, kurashchilarning mamlakat sha'nini yuqori ko'tarishi kabilar tasvirlandi va o'quvchilarga yetkazib berildi.

Olib borilgan tajribalar, o'quvchilar bilan o'tkazilgan davra suhbatlari, kurash darslari davomida va darsdan tashqari mashg'ulotlar mobaynidagi tushuntirishlar natijasida o'quvchilarda kurash orqli milliy iftixor tuyg'ularining rivojlanganligini tasdiqladi. Tajribalarda ishtirok etgan umumta'lim maktablari va ulardagi o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumot quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

O'quvchilarda kurash orqli milliy iftixor tuyg'usining shakllanganligi va milliy g'urur ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida barcha ishtirokchilar dastlabki tekshiruvdan o'tkazildi. Unga ko'ra o'quvchilar tasodifiy tanlash orqali nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Unga ko'ra nazorat guruhi uchun Samarqand shaxar 23-maktab hamda Navoiy shaxar 9-maktab o'quvchilari tanlab olindi (n=254). Tajriba guruhi uchun esa Samarqand shaxar 80-maktab hamda Qarshi shaxar 26-maktab (n=263) o'quvchilari tanlab olindi.

Tajriba boshida har ikkala nazorat va tajriba guruhidagi o'quvchilar dastlab tadqiqot uchun ishlab chiqilgan so'rovnomada ishtirok etdilar. Shuningdek, ikkala guruhdagi o'quvchilar bilan olib boriladigan kurash darslari mazmuni, darsdan tashqari mashg'ulotlarning xususiyatlari o'rganib chiqildi.

#### 5-jadval

#### Kurash orqali o'quvchilarga milliy iftixor tuyg'usini singdirishga oid tajribalarga jalb etilgan ishtirokchilar to'g'risida umumiy ma'lumot (n=517)

Umumta'lim maktablari	Sinflar	Ishtirokchilar (n)
Samarqand shaxar 23-maktab (n=140)	9-sinf	60
	10-sinf	44
	11-sinf	36
Samarqand shaxar 80-maktab (n=153)	9-sinf	76
	10-sinf	48
	11-sinf	29
Qarshi shaxar 26-maktab (n=110)	9-sinf	54
	10-sinf	27
	11-sinf	29
Navoiy shaxar 9-maktab (n=114)	9-sinf	59
	10-sinf	28
	11-sinf	27
<b>Jami ishtirokchilar</b>		<b>n=517</b>

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra nazorat va tajriba guruhida o‘tkazilgan dastlabki tekshiruvlar har ikkala guruhdagi o‘quvchilarda umumiy ko‘rsatkichlar mavjudligini tasdiqladi. O‘quvchilarning milliy iftixor va g‘urur ko‘rsatkichlarini aniqlash olimlar tomonidan ishlab chiqilgan umume’tirof etilgan tegishli so‘rovnoma orqali aniqlandi. Nevada universiteti professori R.Evans va Xalqaro Ijtimoiy Fanlar Universiteti professori J.Kelley (Evans M.D., Kelley J) tomonidan ishlab chiqilgan milliy iftixor tuyg‘usini baholash me‘zonlari va uslubiyati asosida amalga oshirildi.

### 6-jadval

#### **Pedagogik tajribadan avval nazorat va tajriba guruhidagi ishtirokchilarning milliy iftixor tuyg‘usining shakllanganlik darajasi (n=517)**

Ko‘rsatkichlar	Darajalar	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)
Kurash tarixi	Juda yuqori	15	16
	Yuqori	22	21
	O‘rtacha	38	40
	Past darajada	25	23
Kurashning tarbiyaviy asoslari	Juda yuqori	16	17
	Yuqori	20	21
	O‘rtacha	37	36
	Past darajada	27	26
Polvonlar jasorati	Juda yuqori	18	16
	Yuqori	17	19
	O‘rtacha	41	39
	Past darajada	24	26
Tarixiy asarlar va xalq og‘zaki ijodida kurash	Juda yuqori	11	10
	Yuqori	14	16
	O‘rtacha	44	42
	Past darajada	31	32
Polvonlar sulolasi	Juda yuqori	12	13
	Yuqori	15	15
	O‘rtacha	40	38
	Past darajada	33	34
Davlat ramzlari va kurash	Juda yuqori	14	13
	Yuqori	16	18
	O‘rtacha	34	35
	Past darajada	36	34

Bunda kurashga doir ma’lumotlar 6ta qismga ajratilgan holda o‘quvchilarga taqdim etildi. Ular tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha qay darajada fahrlanishlarini belgilashlari so‘raldi. Unga ko‘ra so‘raluvchilar kurashga doir xususiyatlar, xususan kurash tarixi, kurashning tarbiyaviy ahamiyati va boshqa shu kabi tegishli jihatlardan “Juda yuqori”, “Yuqori”, “O‘rtacha” va “Past darajada” kabi me‘zonlar asosida fahrlanishlarini aks ettirishlari kerakligi tushuntirildi.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, tadqiqot boshida nazorat va tajriba guruhida olingan natijalar o‘rtasida deyardi farq kuzatilmagan. Xususan, har ikkala guruhdagi o‘quvchilarning kurash sportidan fahrlanish, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini his qilish darajasi va ularning rivojlanganligi o‘rtasida ishonchli farq kuzatilmagan. Masalan, kurashning rivojlanish tarixi, uning qadimiy sport turi

ekanligidan fahrlanish darajasi nazorat va tajriba guruhlarida deyarli bir xil bo'lgan. Nazorat guruhidagi ishtirokchilarning 15% bundan juda yuqori darajada fahrlanishini bildirgan bo'lsalar, tajriba guruhida esa bu ko'rsatkich 16%dan iborat bo'lgan. Yuqori darajadagi fahrlanish ko'rsatkichi ham ikkala guruhda deyarli teng bo'lgan. Mos ravishda nazorat guruhida 22% va tajriba guruhida 21% ishtirokchilarda kurash tarixidan fahrlanish va milliy iftixor tuyg'ulari yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Shuningdek, nazorat guruhida 38% ishtirokchilarning kurash tarixidan yuqori darajada fahrlanmasligi hamda 25% o'quvchilarning umuman fahrlanmasligi aniqlandi. Mos ravishda tajriba guruhida bu holat 38% va 25%ni tashkil etdi.

Kurashning tarbiyaviy ahamiyatiga oid so'rovda nazorat guruhidagi ishtirokchilarning 16%i bundan juda yuqori darajada fahrlanishlarini bildirganlar. Tajriba guruhidagi ishtirokchilarda esa bu ko'rsatkich 17%ga teng bo'lgan. Qolgan ko'rsatkichlar bo'yicha ham deyarli umumiy xususiyatga ega natijalar qayd etilib, nazorat va tajriba guruhlarida qayd etilgan milliy iftixor tuyg'ulari darajalari o'rtasida keskin farq kuzatilmagan.

Polvonlar jasorati, ularning mardlik va jasurlik hislatlaridan fahrlanish va milliy iftixor tuyg'ularini his etish ko'rsatkichlari nazorat guruhida quyidagicha bo'ldi: Juda yuqori-18%, yuqori-17%, O'rtacha-41%, Past darajada-24%. Bu ko'rsatkich bo'yicha esa tajriba guruhida quyidagi natijalar aniqlandi: juda yuqori-16%, yuqori-19%, O'rtacha-39% va Past darajada-26%. Yuqoridagi ko'rsatkich bo'yicha ham ikkala guruhdagi umumiy natijalar o'zaro mos ekanligi aniqlandi.

Tarixiy asarlar va xalq org'aki ijodida kurashning aks etishi, sharq mutafakkirlarining kurashga bo'lgan e'tibori va e'tirofdan milliy iftixor va milliy g'urur hissini tuyish darajasi yuzasidan nazorat guruhida ishtirokchilarning 11% "juda yuqori" darajani belgilaganlar. Tajriba guruhida esa 10%dan iborat bo'lgan. Qolgan darajalar bo'yicha ham ikkala guruhdagi o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usining shakllanganlik ko'rsatkichlari o'zaro yaqin ekanligi dastlabki natijalar bo'yicha aniqlandi.

Polvonlar sulolasi, ularning kurashni rivojlantirish va ommalashtirishdagi xizmatlari, respublikamiz va jaxonda kurashni rivojlantirishga qo'shgan hissasi yuqori hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha tekshiriluvchilarning milliy iftixor tuyg'usini his etish va milliy g'urur, fahrlanish tuyg'ulari darajasi quyidagicha bo'ldi. Nazorat guruhida "Juda yuqori" – 12%, "Yuqori" – 15%, "O'rtacha" – 40%, "Past darajada" – 33%. Tajriba guruhida "Juda yuqori" – 13%, "Yuqori" – 15%, "O'rtacha" – 38%, "Past darajada" – 34%.

Ma'lumki kurash yaktagi davlat ramzlaridan biri bo'lgan milliy bayroqni aks ettiradi. Shu bilan birga davlat ramzlari bayroq, davlat madhiyasi va gerb xalqaro musobaqalarda qo'llanilib kelinadi. Mazkur holatdan iftixor tuyg'usini his etish yuzasidan nazorat va tajriba guruhidagi o'quvchilarda bu borada ham deyarli teng natija qayd etildi hamda natijalar o'rtasida ishonchli statistik farq qayd etilmadi.

Qayd etish kerakki, sinov-tajriba ishlari olib borilmasidan oldingi nazorat va tajriba guruhidagi o'quvchilarning milliy iftixor tuyg'usining shakllanganlik darajalari deyarli bir xil ekanligi aniqlangan.

Qayd etish joizki, olib borilgan tajriba ishlari, kurash sportining naqadar tarixiy sport turi ekanligini o'quvchilar ongiga singdirish, kurash milliy va

umuminsoniy qadriyatlardan biri ekanligini tushuntirish, o‘zbek an‘analari va urf-odatlarini sifatida asrlardan buyon avloddan avlodga yetib kelayotganligini o‘quv-tarbiya jarayonlariga tatbiq etish, shuningdek, kurashga doir boshqa bir qator xususiyatlar, insonparvarlik, millatparvarlik, mardlik, jasurlik va barkamol shaxsga xos boshqa jihatlarning kurashda aks etishini tasvirlash tajriba guruhiga jalb etilgan o‘quvchilarning milliy iftixor tuyg‘ularining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir etdi.

Jismoniy tarbiya darslari davomida, xususan, kurash darslarida, darsdan tashqari olib borilgan mashg‘ulotlar davomida, shu bilan birga turli davra suhbatlari va muhokamalarda, umumta‘lim maktablari miqyosidagi ma‘naviy-madaniy tadbirlar davomida kurashga doir qimmatli ma‘lumotlarning o‘quvchilarga yetkazib berilishi ularning kurashga bo‘lgan munosabatlarining o‘zgarishiga olib keldi. Xususan, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning kurashga doir bilimlari va tasavvurlari boyishi bilan bir paytda kurash O‘zbekistonda shakllanganligi, uning tarixiy ildizlari O‘zbekiston hududida yuzaga kelganligidan fahr hissini tuyishlariga asos bo‘ldi.

### 7-jadval

#### **Pedagogik tajribadan so‘ng nazorat va tajriba guruhidagi ishtirokchilarning milliy iftixor tuyg‘usining shakllanganlik darajasi (n=517)**

Ko‘rsatkichlar	Darajalar	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)
Kurash tarixi	Juda yuqori	14	30
	Yuqori	23	41
	O‘rtacha	36	18
	Past darajada	27	11
Kurashning tarbiyaviy asoslari	Juda yuqori	15	23
	Yuqori	21	39
	O‘rtacha	39	28
	Past darajada	25	10
Polvonlar jasorati	Juda yuqori	19	29
	Yuqori	15	36
	O‘rtacha	41	20
	Past darajada	25	15
Tarixiy asarlar va xalq og‘zaki ijodida kurash	Juda yuqori	12	26
	Yuqori	13	29
	O‘rtacha	42	45
	Past darajada	33	-
Polvonlar sulolasi	Juda yuqori	11	21
	Yuqori	16	35
	O‘rtacha	42	38
	Past darajada	31	6
Davlat ramzlari va kurash	Juda yuqori	16	27
	Yuqori	18	31
	O‘rtacha	30	39
	Past darajada	36	3

Jismoniy tarbiya darslari davomida, xususan, kurash darslarida, darsdan tashqari olib borilgan mashg‘ulotlar davomida, shu bilan birga turli davra suhbatlari va muhokamalarda, umumta‘lim maktablari miqyosidagi ma‘naviy-madaniy tadbirlar davomida kurashga doir qimmatli ma‘lumotlarning

o'quvchilarga yetkazib berilishi ularning kurashga bo'lgan munosabatlarining o'zgarishiga olib keldi. Xususan, tajriba guruhidagi o'quvchilarning kurashga doir bilimlari va tasavvurlari boyishi bilan bir paytda kurash O'zbekistonda shakllanganligi, uning tarixiy ildizlari O'zbekiston hududida yuzaga kelganligidan fahr hissini tuyishlariga asos bo'ldi.

Jismoniy tarbiya darslari davomida, xususan, kurash darslarida, darsdan tashqari olib borilgan mashg'ulotlar davomida, shu bilan birga turli davra suhbatlari va muhokamalarda, umumta'lim maktablari miqyosidagi ma'naviy-madaniy tadbirlar davomida kurashga doir qimmatli ma'lumotlarning o'quvchilarga yetkazib berilishi ularning kurashga bo'lgan munosabatlarining o'zgarishiga olib keldi. Xususan, tajriba guruhidagi o'quvchilarning kurashga doir bilimlari va tasavvurlari boyishi bilan bir paytda kurash O'zbekistonda shakllanganligi, uning tarixiy ildizlari O'zbekiston hududida yuzaga kelganligidan fahr hissini tuyishlariga asos bo'ldi.

Shuningdek, o'quvchilarda kurashning tarbiyaviy asoslari, xususan, kurash falsafasiga singdirilgan mardlik va jasurlik, insonni ulug'lash, unga zarar yetkazmaslik, jarohat bermaslik, raqibni hurmat qilish, insoniylik tamoyillariga asoslanganlik kabi jihatlar katta ta'surot qoldirdi. Natijada tajriba guruhidagi o'quvchilarning milliy iftixor va fahr hissi ijobiy tomonga o'zgarishiga zamin bo'ldi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, kurashga doir tarixiy ma'lumotlar, kurashning tarbiyaviy ahamiyati va uning boshqa o'zbek xalqiga xos xususiyatlari o'quvchilarga milliy iftixor tuyg'ularini samarali singdirishga ijobiy ta'sir etdi. Xususan, nazorat guruhida kurash tarixidan fahrlanish hissi deyarli o'zgarishsiz qolgan bo'lsa, tajriba guruhida bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada o'zgarishga uchragan. Kurash tarixidan fahrlanish hissining juda yuqori va yuqori ko'rsatkichlari mos ravishda umumiy o'quvchilar ulushining 30 va 41%ini tashkil etgan. Tajribadan so'nggi tekshirishlar nazorat va tajriba guruhidagi o'quvchilar natijalari orasida ishonchli statistik farq mavjudligini ko'rsatgan ( $P \leq 0,05$ ).

Kurashning tarbiyaviy asoslariga oid jihatlardan fahrlanish hissi nazorat guruhida o'zgarishsiz qolgan. Odatdagi o'quv-tarbiya jarayonlari ulardagi bu ko'rsatkichlarga deyarli ta'sir etmagan. Ammo, tajriba guruhida sinovdan so'nggi natijalar ijobiy tomonga o'sgan va umumiy ishtirokchilar ulushining 23%i "Juda yuqori", 39%i "Yuqori" hamda 28%i "O'rtacha" darajalarida baholangan. Atiga 10% o'quvchilar esa bu bilan fahrlanmasliklarini aytib o'tganlar.

Polvonlar jasorati hamda tarixiy asarlarda kurashning aks etishiga doir ko'rsatkichlarda ham nazorat va tajriba guruhlaridagi ishtirokchilarda o'zaro farqlar aniqlandi. Jumladan, nazorat guruhida tajribadan so'ng keskin o'zgarish kuzatilmadi. Ammo, tajriba guruhida yuqoridagi ko'rsatkichlar bo'yicha milliy iftixor tuyg'usining shakllanganlik darajasi ijobiy tomonga o'zgargan.

Qolgan ko'rsatkichlar bo'yicha ham tajriba guruhidagi o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usining shakllanish darajalari yaxshi tomonga o'sgan. Kurashni rivojlantirishga hissa qo'shib kelayotgan polvonlar sulolasi hamda kurash sportida

davlat ramzlarining aks etishi yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari, darsdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlar o'quvchilarga milliy iftixor tuyg'usini singdirishda ijobiy samaradorlikka egaligi tasdiqlandi.

## XULOSALAR

1. Kurash nafaqat jismoniy rivojlanish, balki o'quvchi-yoshlarni ma'naviy va axloqiy jihatdan kamol toptirishda muhim vosita hisoblanadi. Unda mujassam bo'lgan or-nomus, mardlik, halollik, insonparvarlik kabi fazilatlar yosh avlodda milliy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik va g'urur tuyg'ularini shakllantiradi. Kurashning bu kabi ijtimoiy-pedagogik va tarbiyaviy jihatlari uni zamonaviy ta'lim jarayonida, xususan, yoshlarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashda samarali vosita sifatida qo'llash imkonini beradi.

2. Milliy sport turi sifatida kurashning rivojlanishiga bevosita hissa qo'shgan polvonlar sulolasi, ularning tarixiy merosi va ma'naviy-axloqiy fazilatlari yosh avlod tarbiyasida muhim ijtimoiy-pedagogik resurs bo'lib xizmat qiladi. Kurash musobaqalarida davlat ramzlari - bayroq, gerb va madhiyaning qo'llanilishi, shuningdek, kurash yaktagida davlat bayrog'i ranglarining aks ettirilishi orqali sportchilar va tomoshabinlar ongida milliy o'zlik, g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari shakllanadi.

3. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kurash sporti orqali olib borilgan maqsadli tarbiyaviy ta'sir o'quvchi-yoshlar ongida milliy iftixor tuyg'usining shakllanishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan, tajriba guruhi o'quvchilarida "juda yuqori" darajadagi milliy iftixor ko'rsatkichlari 14%ga, "yuqori" darajadagi ko'rsatkichlar esa 20%ga oshgani kuzatildi. Nazorat guruhida esa bu borada muhim o'zgarishlar aniqlanmadi. Bu holat kurash sportining nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy-ma'naviy tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

4. Kurash sporti vositasida o'quvchi-yoshlar ongida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish jarayoni, faqat sport mashg'ulotlari doirasida emas, balki o'quv-tarbiya jarayonining boshqa pedagogik vositalari va shakllari bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borilgandagina yuqori samaradorlikka ega bo'ladi. Xususan, "Tarbiya", "Adabiyot", "Tarix", "Tasviriy san'at" kabi fanlar mazmunini kurash sportining tarixiy, estetik va axloqiy jihatlari bilan integratsiyalash orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarash, g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari samarali shakllanadi. Bunday fanlararo integratsion yondashuv kurashni nafaqat sport, balki keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy tarbiya vositasiga aylantiradi.

5. O'quvchi-yoshlarning ma'naviy tarbiyasida kurash sportining ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari yuqori ekani tadqiqot jarayonida aniqlandi. Xususan, kurash orqali o'quvchilarda milliy iftixor, milliy g'urur, Vatan taraqqiyotiga daxldorlik hissi, shuningdek, milliy qadriyatlarga va an'anaviy madaniyatga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalashga oid pedagogik imkoniyatlar samarali tarzda namoyon bo'ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kurash sporti o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda, ularning axloqiy

pozitsiyasini mustahkamlashda va fuqarolik ongini rivojlantirishda kuchli tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi.

6. O'quvchilarning ma'naviy tarbiyasida, xususan, ularning ongida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda kurash sportining pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Kurashning tarixiy ildizlari, uning tarbiyaviy asoslari, barkamol shaxs shakllanishidagi o'rni hamda Sharq mutafakkirlarining asarlarida kurash va jismoniy barkamollikka berilgan yuksak baholar bu sport turining ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini chuqur ochib beradi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodida va tarixiy polvonlar hayotida kurashning tutgan o'rni haqida taqdim etilgan ma'lumotlar asosida o'quvchi-yoshlar ongiga milliy g'urur, tarixiy xotira va o'zlikni anglash tuyg'ularini singdirish pedagogik nuqtai nazardan yuqori samaradorlikka ega bo'ladi.

7. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan jismoniy tarbiya darslari hamda darsdan tashqari sport-tarbiyaviy faoliyatlarda kurash sportiga oid tarixiy, tarbiyaviy va madaniy mazmundagi ma'lumotlarni tizimli tarzda o'quvchilarga yetkazish, tushuntirish va tahlil qilish ishlari o'quvchilarning ongida kurashning milliy qadriyatlar tizimidagi o'rnini anglashga, uni O'zbekiston xalqi tarixi va madaniyatining ajralmas qismi sifatida qabul qilishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, kurashga oid tarbiyaviy asoslar bilan tanishtirish, uning tarixiy ildizlarini ochib berish, shuningdek, polvonlik an'analari va xalq og'zaki ijodidagi tasvirlarini o'rganish o'quvchilarda milliy o'zlik, g'urur, qadriyatlar va an'anaviy sport madaniyatiga bo'lgan hurmat tuyg'ularining shakllanishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

8. Kurash sporti tarixiga oid ma'lumotlar, vizual taqdimotlar va mazmunli davra suhbatlari orqali o'quvchilar bilan olib borilgan tashviqot-tarbiyaviy ishlar ularning ushbu sport turi haqidagi bilimlarini boyitish bilan birga, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tajriba guruhi o'quvchilari orasida kurashning O'zbekiston hududida qadimdan rivojlanganligi, uning tarixiy ildizlari, xalq hayoti va madaniyati bilan bog'liqligi, shuningdek, bugungi kunda ushbu sport turi jahon miqyosida tan olingan ommaviy sport turlaridan biri ekanligi haqidagi tasavvurlar kengaydi. Natijada, o'quvchilarda milliy merosga nisbatan faxr, tarixiy xotiraga hurmat va o'zlikni anglash tuyg'ulari kuchaydi.

9. Kurash sportining tarbiyaviy ahamiyati, insonparvarlik g'oyalariga asoslangan qoidalari, shuningdek, polvonlarga xos bo'lgan jismoniy, ma'naviy va axloqiy sifatlarni o'quvchilarga tizimli ravishda tushuntirish orqali ularning kurashga bo'lgan ijobiy munosabatlari shakllandi va mustahkamlandi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kurash sporti orqali yoshlarda jasurlik, halollik, o'dob, vatanparvarlik, hamjihatlik va o'zaro hurmat kabi ijtimoiy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish imkoniyati yuqori darajada ekanligi amaliy tahlillar orqali tasdiqlandi.

10. Zamonaviy jamiyatda globalashuv, madaniy integratsiya va axborot oqimlarining ortib borayotgan sharoitida o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish va mustahkamlash zaruriyati tobora ortib bormoqda. Yosh avlodning milliy qadriyatlar va an'analarga sodiqligini ta'minlash, ularda milliy o'zlikni

anglash, tarixiy xotira va g'urur tuyg'ularini shakllantirishda kurash sporti kuchli tarbiyaviy vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Kurash sportining tarixiy ildizlari, unda mujassam bo'lgan or-nomus, mardlik, halollik, insonparvarlik kabi fazilatlar o'quvchilarda ijobiy shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, ular ongiga milliylik, vatanparvarlik va g'urur tuyg'ularini singdirish imkonini beradi.

### **AMALIY TAVSIYALAR**

1. Umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan kurash darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlarda kurashning tarbiyaviy xususiyatlari to'g'risida o'quvchilarga ma'lumotlar berish, o'quvchilarga kurash tarixi, rivojlanishi va kurash falsafasiga doir vazifalar bajartirish maqsadga muvofiq.

2. Umumta'lim maktablari o'quv rejasidagi adabiyot, tasviriy san'at, tarix va tarbiya kabi o'quv fanlarini o'qitish jarayonida kurashga doir ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish, kurashning yuqoridagi fanlarga xos bo'lgan jihatlarini yoritib berish zarur.

3. Darsdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda kurashning tarbiyaviy xususiyatlarini, an'analari va insonparvarlik g'oyalarini tasvirlovchi taqdimotlar, ko'rgazmali chiqishlar va targ'ibot ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

4. Buyuk sarkardalar, tarixiy shaxslar, allomalar hayoti va ijodida kurashning o'rni, tarixiy asarlarda kurashning tasvirlanishi va kurash o'zbek xalqiga xos, uning o'zligini ko'rsatib beruvchi vosita ekanligini tasvirlovchi materiallar, taqdimotlar va ko'rsatmalar bilan o'quvchilarni tanishtirib borish, ular bilan bu borada davra suhbatlari va tashviqot ishlarini amalga oshirish zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТЕ  
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**АХМЕДОВ ЖОХОН КУЛДАШЕВИЧ**

**ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОЙ  
ГОРДОСТИ У УЧЕНИКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КУРАШУ**

**13.00.01 – Педагогическая теория. История педагогических учений**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Чирчик – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией под номером B2021.1.PhD/Ped2153.**

Диссертация выполнена в Самаркандский Государственный Университет имене Шарафа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме) размещен на веб-сайте по адресу [www.uzdtsu.uz](http://www.uzdtsu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net).

**Научный руководитель:**

**Киямов Нишон Садикович**  
доктор педагогических наук (DSc), доцент

**Официальные оппоненты:**

**Мамуров Баходир Бахшуллоевич**  
доктор педагогических наук (DSc), профессор

**Келдияров Шухрат Эргашевич**  
доктор философии по педагогических наук,  
профессор

**Ведущая организация:**

**Термизский государственный университет**

Защита диссертации состоится “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 г. в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.3/30.12.2019.Ped.28.01. При Узбекском государственном университете физической культуры и спорта по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Спортчилар, дом 19. Тел.: (0-370)-717-17 79,717-27-27, факс.: (0-370) 717-17-76; Веб-сайт: [www.uzdjtsu.uz](http://www.uzdjtsu.uz), e-mail: [info@uzdjtsu.uz](mailto:info@uzdjtsu.uz). (Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, корпус «Е» 3-й этаж, аудитория 309)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована за № \_\_\_\_\_) по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Металлурглрлар, дом 15. Тел.: (0-370)-717-17 79,717-27-27, факс. :(0-370) 717-17-76

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года  
(реестр протокола рассылки №\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года)

**Р.М.Маткаримов**

Председатель научного совета  
по присвоению ученых степеней,  
д.п.н.(DSc), профессор

**Ш.Ш.Газиев**

Ученый секретарь научного совета  
по присвоению ученых степеней, д.п.н. (DSc) доцент

**С.С.Тажобаев**

Председателя научного семинара при  
научном совете по присвоению ученых степеней,  
д.п.н. (DSc) профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философских наук (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мире все более актуальным становится вопрос всестороннего воспитания молодежи, воспитания у молодежи национальной гордости. В связи с этим важным условием развития молодежи признается вопрос самосознания молодежи, привития духа уважения к национальным и общечеловеческим ценностям и одновременно всестороннего воспитания молодежи с использованием социально-педагогических возможностей спорта. общества. В частности, известно, что возрастают практические действия, направленные на повышение роли спорта в социальных аспектах развития общества и мирового развития. Особенно в условиях современной глобализации вопрос формирования чувства национальной гордости у школьников, формирования патриотизма и национальной гордости у учащейся молодежи посредством национальных видов спорта остается актуальным на практике.

В мире вопрос воспитания национальных и общечеловеческих ценностей, воспитания национальной гордости, национальной чести, гуманизма и патриотизма у школьников с использованием национальных видов спорта, словом, всестороннего воспитания школьников через национальные виды спорта является в определенной степени научной проблемой. В частности, научные и исследовательские работы в этом направлении проводились в таких странах, как Япония, Южная Корея, Индонезия и Малайзия. В данном исследовании в качестве объекта исследования рассматривается проблема роли и значения национальных видов спорта в воспитании молодежи. Однако все большее значение приобретают исследования по вопросам формирования чувства национальной гордости у учеников посредством национальных видов спорта, научное изучение роли национальных видов спорта в воспитании молодежи в духе патриотизма и формировании чувства гордости.

